

MASOFAVIY MUROJAAT QILINGANDA BANK KARTALARINI FOYDALANISHGA BERISH VA ULARGA XIZMAT KO'RSATISH SHARTLARI

1. Atamalar va ta'riflar

ABS – bankning avtomatlashtirilgan bank tizimi.

Emitent bank — bu BK emissiyasini amalga oshiruvchi, o'zi emissiya qilgan bank kartalariga nisbatan mulk huquqiga ega bo'lgan, o'z nomidan ularning saqlovchilari va ekvayerlar oldida naqd pulsiz hisob-kitoblarga oid qonunchilik hujjatlari talablari asosida majburiyatlarni zimmasiga olgan, shuningdek BK saqlovchilarining to'lov operatsiyalari bo'yicha avtorizatsiyalash, tranzaksiyalarni yig'ish va ularga ishlov berish funksiyalarini amalga oshiruvchi bank.

Kartani bloklash va/yoki blokdan chiqarish – Bank yoki Egasi tomonidan BKning ishlashini tugatish va/yoki bekor qilish choralarini ko'rish.

BK bo'yicha amaliyotlar o'tkazish sanasi – Mijoz tomonidan tovarlar/xizmatlar uchun to'lov va/yoki naqd pullarni kiritish/yechib olish uchun Kartadan foydalangan holda amaliyotlar o'tkazish sanasi, ushbu sana mablag'larni karta hisobraqamidan hisobdan chiqarish/kiritish sanasi bilan to'g'ri kelmasligi mumkin.

Karta hisobraqamidan mablag'larni hisobdan chiqarish/kiritish sanasi – Karta hisobraqami bo'yicha amaliyot summasini hisobdan chiqarish/kiritish sanasi, ushbu harakatlar Mijozning Kartalar yordamida amaliyotlarni bajarganligini yoki ilgari o'tkazilgan Karta hisobraqamidan mablag'larni hisobdan chiqarish/kiritishni bekor qilishni tasdiqlovchi topshiriqlarning Bankka kelib tushgan kundan keyingi amaliyot kundan kechiktirmay amalga oshiriladigan harakatdir, amaliyot o'tkazish sanasi bilan to'g'ri kelmasligi mumkin.

Bank kartasi foydalanuvchisi (yoki Mijoz) - arizasiga asosan karta hisobvarag'i ochgan, BK bo'yicha to'lov operatsiyalarini amalga oshirish hamda BK va karta hisobvarag'ini yopish huquqiga ega bo'lgan jismoniy shaxs. BK bank tarafidan BK foydalanuvchisi vaqtinchalik foydalanish uchun beriladi va bankning mulki hisoblanadi.

Muzlatish – ekvayerdan hisob-kitobni kutayotgan, muayyan muddatga zaxiralangan amaliyot summasi.

Garov depoziti – BKdagi mablag'lardan ortiqcha sarflangan mablag'larni qoplash uchun, Karta hisobraqami yopilgandan so'ng 3 (uch) bank kuni ichida BK egasiga qaytariladigan pul summasi.

Zolotaya Korona – hisobraqam ochmasdan tezkor pul o'tkazmalari xizmati bo'lib, xizmatlarni Rossiya, MDH davlatlari, Yevropa Ittifoqi va boshqa bir qator mamlakatlar hududida taqdim etadi.

To'lovlar tarixi (Monitoring) – Mijozning tizimlarda hisobraqamlardan foydalangan holda amalga oshirgan barcha harakatlarining elektron ifodalanishidir. To'lovlar tarixidan ko'chirma yetarlicha dalil bo'lib, Bank va Mijoz tomonidan Mijozning Tizimlardagi harakatlari haqidagi ma'lumot sifatida foydalanilishi mumkin.

Kobeydjing (qo'shma) bank kartasi – O'zbekiston Respublikasi yoki boshqa mamlakatlar banklari (emitentlari) tomonidan chiqarilgan va turli to'lov tizimlari infratuzilmasida foydalanish uchun mo'ljallangan ikki yoki undan ortiq to'lov tizimlarining qo'shma bank kartasi. Bank kartasi egasining bank hisobraqami bo'yicha amalga oshirilishi mumkin bo'lgan amaliyotlar turlari bank kartasi egasi va emitent o'rtasida tuzilgan Shartnoma asosida belgilanadi.

Moment kartasi — bank tomonidan oldindan chiqarilgan va mijozga individual tarzda murojaat vaqtida darhol taqdim etish uchun mo'ljallangan to'lov kartasi. Bank kartasida karta raqami, amal qilish muddati aks ettirilgan bo'lib, egasining familiyasi va ismi mavjud emas, karta egasining ismi va familiyasi bank ilovasida elektron ko'rinishda aks ettiriladi. Bank kartasi uning egasiga berilgandan so'ng faollashtiriladi va mijoz nomiga bank hisobvarag'i ochilib birlashtiriladi. Faollashtirildan so'ng karta egasi POS/e-POS terminallarida har qanday to'lovlarni amalga oshirishi va bankomatlarda naqd pul yechib olishi mumkin.

Konversiya amaliyoti — masofadan turib xorijiy valyutadagi xalqaro bank kartasi orqali milliy valyutadagi bank kartasidan amaliyot kuni davomida xorijiy valyutani sotib olish va sotish amaliyotlarini bajarish.

Valyuta kursi — amaliyot kuni uchun belgilangan konversiya kursi.

Ruxsat etilmagan ortiqcha xarajat – amaliyotlarni hisobraqam to'lov limitidan oshib ketadigan miqdorda amalga oshirish.

Pul mablag'larini o'tkazish (kartadan kartaga o'tkazish) – pul mablag'larini Bankning Mobil ilovasi (bank o'tkazmasi) orqali, shuningdek, Bankda ochilgan hisobraqamlardan (hisobraqamlarga) o'tkazish.

Hisobraqamdagi to'lov limiti – mijozning hisobraqamdagi o'z mablag'lari qoldig'i va kredit limiti summasini o'z ichiga oluvchi, hisobraqamda bloklangan amaliyotlar summasini, tegishli komissiyani yoki mijozning Bankning mobil ilovasi orqali berilgan topshirig'iga ko'ra zaxiralangan summalarni chegirib tashlagan holdagi pul mablag'lari summasi.

Topshiriq – Tizimlarda mavjud bo'lgan xizmatlarni olish uchun mijoz tomonidan yuborilgan, elektron hujjat shaklida qayd etilgan harakat.

Karta rekvizitlari (ma'lumotlari) – kartada ko'rsatilgan ma'lumotlar: kartaning raqami, amal qilish muddati, BK egasi/saqlovchisining ismi va familiyasi (lotin alifbosi harflarida), CVV (CVC/CVN) kodi.

“Visa Direct” xizmati – VISA xalqaro to'lov tizimi tarmog'i bazasidagi texnologiya bo'lib, VISA to'lov tizimi kartasining egalariga real vaqt rejimida pul mablag'larini xavfsiz o'tkazish imkonini beradi.

Visa Alias – onlayn tranzaksiyalarning xavfsizligini ta'minlash uchun yaratilgan noyob identifikator. U real bank hisobraqami bilan assotsiatsiyalanadigan vaqtinchalik karta raqamidan iborat bo'lib, Internetda xaridlarni amalga oshirish uchun qo'llanilishi mumkin. Visa Alias mijozning maxfiy ma'lumotlarini himoya qilish va onlayn to'lovlar xavfsizligini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Bank kartalarining to'lov tizimlariga tegishliligi bo'yicha turlari – amaliyotlar o'tkazish, jumladan Tizimlardan foydalangan holda amaliyotlar o'tkazish uchun Bank tomonidan emissiya qilingan “UZCARD”, “HUMO” milliy to'lov tizimlarining bank kartalari va “VISA”, “UnionPay” xalqaro to'lov tizimlarining bank kartalari.

Savdo-xizmat ko'rsatish korxonasi (SXX) – tovar va xizmatlarni to'lash uchun BKni qabul qilish huquqiga ega bo'lgan savdo-xizmat ko'rsatish korxonasi.

Tranzaksiya – BK egasi tomonidan amalga oshiriladigan, uning bank hisobraqamining debetlanishiga olib keladigan har qanday amaliyotlar.

To'lov shablonlari – Mijoz tomonidan Bank mobil ilovasi xizmati vositasida yaratilgan, Bankda saqlanadigan va mijoz tomonidan tizimlar orqali pul mablag'larini o'tkazishga farmoyishlarni rasmiylashtirish uchun foydalaniladigan to'lov rekvizitlari to'plami.

Ekvayring – SXX bilan kartalardan (karta rekvizitlari) foydalangan holda va/yoki kartalar egalariga naqd pul mablag‘larini berish, shuningdek, boshqa amaliyotlar bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish, amaliyotlar o‘tkazishni ta‘minlash bo‘yicha ishtirokchining faoliyati.

Ekvayer/ekvayer bank – ekvayringni amalga oshiruvchi ishtirokchi.

Elektron to‘lov – mijozning topshirig‘i bo‘yicha tizimlarda naqd pulsiz to‘lovlarni amalga oshirish.

Emissiya – bank kartalarini kartani egasiga vaqtincha foydalanish uchun berish orqali muomalaga chiqarish.

Emitent – emissiyani amalga oshiruvchi ishtirokchi.

CVV (CVC/CVN) kodi – to‘lovlarni Internet orqali amalga oshirishda foydalaniladigan bank kartasining maxfiy raqami.

2. Umumiy shartlar

2.1. Ushbu Ilovaning qoidalari milliy valyutadagi bank kartalari va kobeydjing kartalarini chiqarish, xizmat ko‘rsatish va yopish, hamda xalqaro valyutadagi kartalarga xizmat ko‘rsatish tartib-tamoyillari doirasida Bank va Bank kartasi egasi o‘rtasidagi munosabatlar tartibini belgilaydi.

2.2. Bank bank kartasini vaqtinchalik foydalanish uchun uning egasiga beradi va o‘zaro hisob-kitoblarni bank kartasi orqali amalga oshiradi. Bank kartasining egasi bank xizmatlari uchun Shartnoma shartlariga muvofiq haq to‘laydi.

2.3. Tizim tomonidan taklif etilayotgan asosiy xizmatlar (elektron to‘lovlarni amalga oshirish, balansni tekshirish, to‘lovlar tarixi, valyuta kurslari va h. k.), jumladan milliy valyutadagi karta hisobraqamlari bo‘yicha Xizmatlarga yo‘l ochish, plastik kartaga ariza berish, kartani ko‘rsatilgan manzilga yetkazib berish, kredit olish uchun ariza berish Mijoz tomonidan masofaviy tarzda, Bank ofislariga kelmasdan amalga oshiriladi.

Shartnoma mijozning bank bo‘limiga murojaat qilishi va/yoki Bankning Mobil ilovasidan foydalanishi orqali tuzilishi mumkin. Masofaviy bank xizmatlari ko‘rsatish tizimlari orqali Shartnoma tuzish uchun Mijoz Bankning shakli bo‘yicha, ushbu Ofertaning ushbu shartlariga muvofiq ariza shakllantiradi, amaldagi qonunchilik va bank tomonidan o‘rnatilgan talablarga muvofiq Shartnomani tuzish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni ilova qiladi. Bank mijozning arizasini qabul qilgandan so‘ng Shartnoma tuzilgan hisoblanadi. Bank karta hisobraqamini ochish orqali arizani qabul qiladi. Bu holatda shartnoma mijoz nomiga karta hisobraqami ochilgan sanada tuzilgan hisoblanadi. Mijoz tomonidan oddiy elektron imzo yordamida to‘ldirilgan va imzolangan ariza Bank tomonidan qabul qilingan taqdirda Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi va mijozning Ommaviy ofertada bayon etilgan Umumiy qoidalarga to‘liq va so‘zsiz roziligini tasdiqlaydi, shuningdek, Mijoz ariza berishda bankning tariflari bilan tanishganligi va rozi ekanligini tasdiqlaydi.

Har bir keyingi Bank kartasining ochilishi tegishli Kelishuvning tuzilishi bilan amalga oshiriladi.

2.4. Tizimning ishtirokchilari quyidagilar:

- “Hamkorbank” ATB – Masofaviy bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi bank;
- mijoz;
- Banklararo universal netting axborot tizimi (keyingi o‘rinlarda “BUNAT”);
- Paynet;
- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki;

- kommunal, aloqa xizmatlari, tovarlar va Bank tomonidan oʻrnatilgan boshqa xizmatlarni koʻrsatuvchi, tegishli billing tizimiga ega boʻlgan, BUNATga yoki hisob-kitoblarning boshqa shunga oʻxshash tizimlariga ulangan xoʻjalik yurituvchi subyektlar;
- davlat organlari va muassasalari;
- Yagona umumrespublika protsessing markazi (YAUPM);
- Milliy banklararo HUMO protsessing markazi (MBPM);
- VisaNet;
- UnionPay International (UPI);
- oluvchi bank (kommunal, aloqa xizmatlari, tovarlar va Bank tomonidan oʻrnatilgan boshqa xizmatlarni koʻrsatuvchi xoʻjalik yurituvchi subyektning bank hisob raqami ochilgan bank, hamda ularning foydasiga Elektron toʻlov amalga oshirilayotgan bank kartalari egalari).

2.5. Bank kartasi bankning mulki hisoblanadi.

2.6. Karta shaxsiylashtirilgan toʻlov vositasi boʻlib, Kartaning qonuniy egasiga tegishliligi uning ismi, familiyasi va/yoki Kartada mavjud boʻlgan imzo namunasi (kartada shunday maydon mavjud boʻlgan taqdirda), shuningdek PIN-kod bilan belgilanadi.

2.7. Kartadan faqat Mijoz yoki Karta hisobraqamida hisobga olinadigan mablagʻlarni tasarruf etish huquqiga ega boʻlgan boshqa shaxs foydalanishi mumkin. Bunday holda Kartadan foydalanish va u bilan amalga oshirilgan amaliyotlar uchun Mijoz javobgar boʻladi.

3. Bank kartalarini chiqarish va ularga xizmat koʻrsatish shartlari

3.1. Shartnomaga muvofiq chiqarilgan bank kartasi uning raqami va boshqa xavfsizlik atributlaridan foydalangan holda tovarlar yoki xizmatlar uchun haq toʻlash, bank kassalarida yoki bankomatlarda naqd pul mablagʻlarini olish, pul mablagʻlarini oʻtkazish, shuningdek, Internet orqali toʻlovlarni amalga oshirish uchun ishlatilishi mumkin.

3.2. Bank kartasining PIN-kodi Karta egasi tomonidan Bankka shaxsan murojaat qilish yoki tegishli Toʻlov tizimi kartasining PIN-kodini oʻzgartirish funksiyasini qoʻllab-quvvatlovchi masofaviy bank xizmatlari koʻrsatish kanallari orqali oʻzgartirilishi mumkin. Texnik imkoniyat mavjud boʻlgan taqdirda bank PIN-kodni oʻzgartirish imkoniyatini taqdim etadi. Yangi PIN-kodni oʻrnatishda bir xil yoki ketma-ket raqamlar kombinatsiyasidan foydalanish tavsiya etilmaydi. Karta egasi PIN-kodni cheksiz koʻp marta oʻzgartirishi mumkin. PIN-kod yoʻqotilgan taqdirda tiklanmaydi, bunday holda mijoz PIN-kodni oʻzgartirish yoki kartani qaytadan chiqarish uchun, texnik imkoniyat mavjud boʻlgan taqdirda Bankning Aloqa-Markaziga murojaat qilishi, PIN-kodni Bankning Mobil ilovasida mustaqil ravishda oʻzgartirishi lozim.

3.3. Kartaning ish qobiliyatini saqlab qolish uchun Karta egasi Shartnomada belgilangan Kartani saqlash va undan foydalanish shartlariga rioya qilishi va quyidagilarga yoʻl qoʻymasligi kerak:

- Kartaga magnit maydonlarning taʼsiri. Magnit maydonlarning manbalari quyidagilar boʻlishi mumkin: metall materiallar (tangalar, magnit mahkamlagichlar, chizgʻichlar va boshqalar), mobil telefonlarning ayrim modellari, video-, audio uskunalari, qoʻl metall detektorlari va boshqalar;
- Kartaning mexanik shikastlanishi;
- Kartaning ifloslanishi;

- Kartaga yuqori harorat va Kartaning plastigi va/yoki chipini buzadigan agressiv muhitning ta'sir qilishi.

3.4. Karta egasi kartadan uning amal qilish muddati tugagunga qadar foydalanishi mumkin. Kartaning amal qilish muddati uning old tomonida ko'rsatilgan va oyning ikki raqami va yilning oxirgi ikki raqami bilan belgilangan. Karta unda ko'rsatilgan oy va yilning oxirgi kunigacha amal qiladi. Bank kartasining amal qilish muddati to'lov tizimi tomonidan belgilanadi va 5 (besh) yildan oshmaydi.

3.5. UzCard-UnionPay/HUMO-Visa kobeydjing kartalari UnionPay/Visa debet kartasi asosida chiqariladi. Ushbu kartalar O'zbekiston Respublikasi bo'ylab qabul qilinadi, shuningdek, ular bilan UnionPay/Visa bilan xorijiy valyutada to'lashning imkoni bo'lgan dunyoning boshqa mamlakatlarida ham xaridlar yoki xizmatlar uchun haq to'lash uchun foydalanish mumkin. O'zbekiston Respublikasining hududida kobeydjing kartalari UzCard/HUMO kartalari kabi vazifa bajaradi va savdo va xizmat ko'rsatish korxonalarida to'lovlarni amalga oshirish, Internet orqali xaridlar qilish va bankomatlardan naqd pul yechib olishda ulardan foydalanish mumkin.

3.6. Bank kartasini chiqarish:

3.6.1. Bank bank kartasini Ommaviy oferta shartlari va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlari, individual shartlarni belgilaydigan kelishuvlar va Bank Mobil ilovasi va/yoki Bank tarmog'i orqali berilgan Arizaga muvofiq chiqaradi.

3.6.2. Bank kartasi kelishuv tuzilgan kundan e'tiboran 3 (uch) bank ish kuni (Kobeydjing kartasini berish muddati 10 (o'n) ish kuni) ichida, Bankning tariflarida nazarda tutilgan summalar ushbu Oferta shartlariga muvofiq to'langan taqdirda beriladi.

3.6.3. Agar yetkazib berishda Bank kartasi ko'rsatilgan manzil bo'yicha egasining yo'qligi sababli unga topshirilmasa yoki uning egasi kartani ariza berilgan paytdan e'tiboran 3 (uch) oy ichida Bankdan mustaqil ravishda olib ketmagan taqdirda karta yo'q qilinadi, bank Tariflariga muvofiq olingan qo'shimcha to'lov esa Karta egasiga qaytarilmaydi.

3.7. Hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi:

3.7.1. Bank Kartada Bank tariflariga muvofiq bankka to'lanadigan komissiyalarni to'lash uchun yetarlicha bo'lgan pul mablag'lari mavjudligida Shartnomaga muvofiq xizmat ko'rsatadi. Bunda Karta hisobraqamini ochish va Kartani chiqarish faqat tegishli komissiya Bank Tariflarida (mavjud bo'lganda) ko'rsatilgan miqdorda to'langanidan keyingina amalga oshiriladi.

3.7.2. Mijoz Bank tomonidan chiqarilgan bank kartalariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining boshqa tijorat banklarining kartalariga milliy va xalqaro valyutadagi o'tkazmalarni amalga oshirish imkoniyatiga ega.

3.7.3. Xarid qilishda, naqd pul olishda va chekni imzolashda Karta egasi bank kartasi bo'yicha amaliyotni bajarishni tasdiqlovchi PIN-kodni (zarurat tug'ilganda) kiritishi shart.

3.7.4. Bank Mijoz tomonidan Tizim orqali amalga oshiriladigan pul o'tkazmalarining maksimal va minimal miqdorini belgilash, o'zgartirish va bekor qilish huquqiga ega. Mijoz limitning amaldagi miqdori haqidagi ma'lumotlar bilan tizim orqali pul o'tkazish jarayonida tanishishi mumkin. Bunda Mijozning hisobraqami bo'yicha amalga oshirilayotgan amaliyotlarning qonuniyligi uchun Bank javobgarlikni o'z zimmasida bo'lmaydi.

3.7.5. Karta bo'yicha amaliyotni amalga oshirishda PIN-kodni to'g'ri kiritish, Maxfiy kod va Bank kartasining to'g'ri rekvizitlaridan foydalanish Bank uchun amaliyotning shaxsan Karta egasi tomonidan amalga oshirilganlik faktining so'zsiz tasdiq'idir va ushbu amaliyotni Avtorizatsiya qilish (agar Avtorizatsiya qilish tartib-tamoyili to'lov tizimi qoidalarida nazarda tutilgan bo'lsa) va keyinchalik amaliyot summasini Karta hisobraqami/bank kartasidan hisobdan chiqarish uchun asos bo'ladi. Bunda mijoz bunday amaliyotning o'tkazilishi uchun javobgar bo'ladi.

3.7.6. Bank avtorizatsiya jarayoni natijasida amaliyotni o'tkazish uchun akseptni olganda va bank ko'rsatilgan xizmatlarni taqdim etish uchun zarur harakatlarni amalga oshirganda pul mablag'larini o'tkazish bilan bog'liq xizmatlar bank tomonidan ko'rsatilgan hisoblanadi.

3.7.7. Pul mablag'larini oluvchining bank kartasiga kirim qilish yoki kirim qilish oluvchining rekvizitlari bo'yicha Emitent bank yoki boshqa shaxslarning aybi bilan Shartnoma va O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan muddatlar va boshqa talablar buzilgan holda amalga oshirilgan taqdirda, Bank javobgar bo'lmaydi.

3.7.8. Bank Mijoz tomonidan topshiriqni rasmiylashtirish, xizmatlar parametrlarini kiritish chog'ida yo'l qo'yilgan xatolar yoki o'tkazmani qabul qiluvchining rekvizitlarini noto'g'ri kiritganlik uchun javobgar bo'lmaydi. Bunday hollarda xizmatlar Bank tomonidan Mijozga lozim darajada va Shartnomaga to'la mos ravishda ko'rsatilgan deb hisoblanadi va Mijoz xizmat ko'rsatish natijasida hisobraqamiga pul mablag'lari kelib tushgan jismoniy yoki yuridik shaxs bilan kelgusidagi o'zaro hisob-kitoblarni mustaqil ravishda Bank ishtirokisiz) tartibga solishi lozim.

3.7.9. Mijoz o'z Kartasidan ruxsatsiz foydalanish oqibatida pul mablag'lari yo'qotilishining oldini olish uchun barcha mumkin bo'lgan choralarni ko'rishi shart, chunonchi:

- Bank kartalari/karta hisobraqamlari bo'yicha barcha harakatlar to'g'risida SMS-xabarlar orqali tezkor ma'lumotlarni olish uchun "SMS-xabar berish" xizmatiga ulanish;
- PIN-kod va/yoki bank kartasini boshqa shaxslarga bermaslik;
- PIN-kodni Bank kartasiga yozmaslik;
- PIN-kodni bank kartasi bilan birga saqlamaslik;
- Bank kartasi rekvizitlari (kartaning to'liq raqami, Kartaning amal qilish muddati) va amaliyotni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni xabar qilmaslik, Bankka kartaga xizmat ko'rsatish bo'yicha murojaat qilish hollari bundan mustasno;
- Bank kartasi va uning rekvizitlarini boshqa shaxslar tomonidan foydalanilmasligini ta'minlash, kartani o'zida yoki boshqalar uchun imkonsiz joyda saqlash;
- Kartaning saqlanish joyida mavjudligini doimiy ravishda tekshirish, ayniqsa uzoq vaqt bo'lmaslikdan so'ng (ta'til, xizmat safari va h.k.);
- tovarlar (xizmatlar) uchun to'lovni amalga oshirishda bir vaqtning o'zida bir nechta Bank kartalarini taqdim etmaslik;
- shaxsga doir ma'lumotlar yoki bank kartasi ma'lumotlari so'ralgan elektron pochta yoki SMS xabarlariga javob bermaslik. Kod ma'lumotlari, pasport raqami, Bank kartasi raqami va uning PIN-kodi, Tekshirish kodi, karta bilan yaqinda amalga oshirilgan amaliyotlar yoki boshqa maxfiy ma'lumotlarni so'ragan har qanday kompaniya yoki shaxsdan shubhalanish; Abonent qurilmasini tarmoq hujumlari, zararli dasturlarni o'rnatish va shaxsgadoir ma'lumotlarni o'g'irlashdan himoya qiluvchi dasturiy ta'minotni o'rnatish va doimiy ravishda yangilab borish.

3.7.10. Mijoz pul mablag'larini boshqa tijorat banklarining kartalariga o'tkazishda yoki ularning kartalaridan o'tkazishda qo'shimcha to'lovlar undirilishi mumkinligini tushunadi va bunga rozi bo'ladi. Ko'rsatilgan hollarda xizmatlar Bank tomonidan Mijozga lozim darajada va Shartnomaga to'la mos ravishda ko'rsatilgan deb hisoblanadi va mijoz bunday komissiyani oluvchi bilan keyingi munosabatlarni mustaqil ravishda tartibga solishi shart.

3.7.11. "Hamkorbank" ATB Mobil ilovasida konvertatsiya qilish faqat "Hamkorbank" ATBda emissiya qilingan bank kartasiga istalgan Bankning UzCard va HUMO bank kartasidan amalga oshiriladi.

3.7.12. Garov depoziti bank tariflariga muvofiq Karta hisobraqamiga olingan birinchi to'lovdan chegirib qolinadi, agar bu Bankning Tariflarida nazarda tutilgan bo'lsa. Birinchi depozitni kiritish imkoni bo'lmagan taqdirda depozitning keyingi summasi bank hisobraqami bo'ladigan keyingi amaliyotda chegirib qolinadi.

3.7.13. Taraflar Bank Mijozni bank kartasi yoki uning rekvizitlaridan foydalangan holda amaliyotlar sodir etish to'g'risida tegishli xabarnomani Bankning Mobil ilovasiga joylashtirish orqali xabardor qilishiga rozi bo'ladilar. Bank kartasi, uning rekvizitlari va/yoki masofaviy bank xizmatlaridan foydalangan holda amalga oshirilgan amaliyotlar to'g'risida Bankning xabarnomalarini olish uchun mijoz Karta hisobraqami va bank kartalari bo'yicha amaliyotlarni monitoring qilish maqsadida Bankning Mobil ilovasiga har kuni murojaat qilishi shart. "Monitoring" bo'limida ko'rsatilgan amaliyotlar (summalar) va haqiqatan amalga oshirilgan amaliyotlar (to'langan summalar) o'rtasida tafovutlar aniqlangan taqdirda Mijoz ushbu Oferta shartlariga muvofiq zudlik bilan bankni bu haqda xabardor qilishi shart. To'lov tizimining qo'shimcha protsessing markazi Mijozni Bank kartasi yoki uning rekvizitlaridan foydalangan holda amaliyotlar sodir etilganligi haqida SMS-xabar qilish xizmati orqali xabardor qiladi, agar bunday xizmat ulangan bo'lsa.

3.7.14. Chek/elektron chek yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga javob beradigan boshqa hujjat va/yoki karta hisobraqami bo'yicha amaliyotlar haqidagi ko'chirma amaliyot sodir etilganligining tasdig'i hisoblanadi.

3.7.15. Bank kartasi yoki uning rekvizitlaridan foydalanish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, Ommaviy oferta, Karta tegishli bo'lgan to'lov tizimining umumiy shartlari va qoidalari bilan tartibga solinadi.

3.8. Bank kartasini yopish, bloklash va qayta chiqarish:

3.8.1. Karta hisobraqamini yopish ushbu hisobraqam bilan bog'liq bo'lgan tegishli Bank kartasidan foydalanishning to'xtatilishiga olib keladi, biroq hisobraqamning amal qilish muddati tugamaydi.

3.8.2. Bloklangan karta hisobraqamlaridagi amaliyotlarning to'xtashi ularga bog'langan bank kartalaridan foydalanish huquqining bekor qilinishiga olib keladi.

3.8.3. Bankdan bank kartasi va karta hisobraqamini yopish to'g'risida so'rov olinganda bank to'lov tizimining qismi bo'lmagan va to'lov topshiriqnomasi bo'yicha olingan pul mablag'larini karta hisobraqamiga o'tkazmaydi. Bunday to'lovlar to'lovchining ma'lumotlari asosida bank tomonidan qaytarib beriladi.

3.8.4. Agar karta Karta egasi tomonidan Bankdan o'z muddatida olinmagan bo'lsa, bank Karta egasining so'roviga ko'ra Bank kartasini yangi muddatga qaytadan chiqarishga haqlidir.

3.8.5. Bank kartasini qayta rasmiylashtirishda kartaning yangi amal qilish muddati karta emissiya qilingan kundan boshlanadi.

3.8.6. Bank kartasi yo'qolgan, singan yoki mexanik shikastlanganda, shuningdek, Karta egasining kartada ko'rsatilgan familiyasi va/yoki ismi o'zgarganda va karta boshqa sabablarga ko'ra muddati tugagunga qadar qaytadan rasmiylashtirilgan taqdirda qayta chiqarish karta egasining arizasi asosida, Bank Tariflarida ko'rsatilgan tegishli qo'shimcha summa (agar mavjud bo'lsa) to'langan taqdirda amalga oshiriladi.

3.8.7. Bank kartasidan foydalangan holda tranzaksiya yoki bank hisobraqami doirasidagi amaliyotlar quyidagi shartlarga rioya qilingan taqdirda, istalgan vaqtda to'xtatib qo'yilishi (bloklanishi) mumkin:

- BK egasining yozma so'roviga binoan;
- Oferta shartlari buzilgan taqdirda;
- Bank hisobraqami bo'yicha amaliyotlar to'xtatib qo'yilgan taqdirda;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

3.8.8. Bank kartasi va Bank hisobraqami Bank tomonidan quyidagi hollarda bloklanishi mumkin:

- ushbu Oferta shartlari buzilgan taqdirda;
- BH yopilgan taqdirda;
- bir yil davomida BKH ishlatilmaganda yoki BH bilan amaliyotlar amalga oshirilmaganda;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

3.8.9. PIN-kod 3 (uch) marta noto'g'ri terilganda bank kartasi avtomatik ravishda bloklanadi. Bank kartasini blokdan chiqarish uchun mijoz Bankning aloqa markaziga yoki Bankning bo'limiga murojaat qilishi kerak.

4. Komprometatsiya

4.1. Bank kartasi yo'qolgan, o'g'irlangan yoki shikastlangan taqdirda va/yoki bank kartasi yoki uning rekvizitlari, shuningdek PIN-kod, kirish kodlari, autentifikatsiya ma'lumotlari, abonent raqami yo'qolganligi yoki o'g'irlanganligiga shubha tug'ilsa, shuningdek hisob-kitob kartasi bankomat yoki savdo va xizmat ko'rsatish korxonasida olib qo'yilgan, hamda egasining ismi yoki familiyasi o'zgargan taqdirda Mijoz Bankni bu haqda darhol xabardor qilishi va Bank kartasi va Bankning mobil ilovasini zudlik bilan bloklashi, hamda Bank kartasini muddatidan ilgari qayta chiqarish haqida ariza berishi lozim. Og'zaki bayonotga ko'ra Bank faqat Bank kartasi va Bankning Mobil ilovasini bloklash choralarini ko'radi. Mijozga yuqorida ko'rsatilgan hodisalar natijasida yetkazilgan zararlar uchun Bank javobgar bo'lmaydi.

4.2. Ilgari yo'qolgan deb e'lon qilingan bank kartasi topilsa, egasi uni Bankka qaytarishi shart. Ushbu Bank kartasidan kelgusida foydalanish taqiqlanadi.

5. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

5.1. Bankning majburiyatlari:

5.1.1. Mijozga Tarif rejasiga muvofiq milliy va/yoki chet el valyutasida Karta hisobraqamini ochish.

5.1.2. Bank kartasi bo'yicha har bir amaliyot to'g'risida Mijozni unga Masofaviy xizmatlar doirasida ma'lumot taqdim etish orqali xabardor qilish.

5.1.3. Mijozning O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va mazkur Shartnomaga muvofiq rasmiylashtirilgan topshirig‘ini ijroga qabul qilish.

5.1.4. Bank kartasi egasining foydasiga kelib tushgan pul mablag‘larini lozim darajada rasmiylashtirilgan to‘lov hujjatlari olingan kundan e‘tiboran uch ish kuni ichida kirim qilish.

5.1.5. Karta egasidan uning yo‘qolganligi yoki o‘g‘irlanganligi to‘g‘risida yozma va/yoki og‘zaki xabarnoma olganda ushbu karta bilan amalga oshiriladigan barcha tranzaksiyalarni to‘xtatib turish choralarini ko‘rish.

5.1.6. Tariflar va ularning o‘zgarishlari to‘g‘risida Bankning www.hamkorbank.uz veb-saytida e‘lon qilib borish.

5.1.7. Arizani ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda, mijozga Bank kartasini ariza berilgan kundan e‘tiboran 3 (uch) bank kuni ichida Kartani yetkazib berish muddatini hisobga olmagan holda (agar bankda yetkazib berish xizmati mavjud bo‘lsa) chiqarish/qayta chiqarib berish.

5.1.8. Bank kartasidan foydalangan holda amaliyotlar bo‘yicha hisob-kitoblarning amalga oshirilishi va to‘g‘riligini ta‘minlash.

5.2. Mijoz quyidagilarni o‘z zimmasiga oladi:

5.2.1. Ushbu Shartnomaga imzolagunga qadar Shartnoma shartlari va Bank tariflari bilan o‘z vaqtida va to‘liq hajmda tanishib chiqish.

5.2.2. Bank kartasidan Shartnomaga muvofiq, Bank kartasida imkoniy bo‘lgan pul mablag‘lari chegarasida, Bank kartasining old tarafida ko‘rsatilgan amal qilish muddati davomida foydalanish.

5.2.3. Kartadan sotilishi amaldagi qonunchilikda ta‘qiqlangan tovarlar va xizmatlar uchun to‘lovlarni amalga oshirishda foydalanmaslik. Ushbu Shartnoma doirasida tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq amaliyotlarni amalga oshirmaslik.

5.2.4. Maxfiy ma‘lumotlarni, jumladan maxfiy kodlarni, parollarni, karta rekvizitlarini va uchinchi shaxslarga berib bo‘lmaydigan boshqa ma‘lumotlarni oshkor qilmaslik. Bank kartasi rekvizitlari va boshqa maxfiy ma‘lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor qilishning salbiy oqibatlari uchun mijozning o‘zi javobgar bo‘ladi.

5.2.5. Tizimdan foydalanishda ushbu Shartnoma shartlariga rioya qilish.

5.2.6. Xizmatlardan foydalanishdan oldin bankning ushbu Xizmatlarni taqdim etishga bo‘lgan cheklavlari bilan tanishib chiqish.

5.2.7. Ko‘rsatilgan xizmatlar uchun (bundaylar mavjud bo‘lganda) Bankning Tariflariga muvofiq komissiya to‘lash.

5.2.8. Shartnoma shartlari, jumladan, ushbu Ilovaning 3.7.9-bandida ko‘rsatilgan Bank kartasini saqlash va undan foydalanish shartlariga rioya qilish.

5.2.9. Xizmat ko‘rsatish uchun Topshiriqni rasmiylashtirishda Bank tomonidan so‘ralgan ishonchli ma‘lumotlarni taqdim etish.

5.2.10. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Shartnomada nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar, ma‘lumotlar va axborotlarni Bankning talabiga ko‘ra taqdim etish.

5.2.11. Hisobraqamlariga ruxsatsiz kirish va pul mablag‘larini yechib olish holatlari to‘g‘risida zudlik bilan Bankka 1256 yoki 0 800 1 200 200 aloqa raqamlari orqali xabardor qilish.

5.2.12. Ushbu Shartnomaga rioya qilmaslik natijasida Mijoz tomonidan bankka yetkazilgan zararni qoplash, hamda mijozning topshiriqlarini bajarganlik uchun bankka

to'lanadigan komissiyalarni Bankning amaldagi tariflariga muvofiq hisobraqamlardan hisobdan chiqarish uchun bankka huquq berish.

5.2.13. PIN konvertni qabul qilayotganda, PIN konvertda tashqi shikastlar yo'qligiga ishonch hosil qilish.

5.2.14. Bank kartasi uchun PIN-kodni o'rnatish va o'zgartirish va uni uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik.

5.2.15. Moment kartasi qabul qilganda bank kartasidagi mijoz familiyasi va ismi yozilishi uchun alohida ajratilgan maxsus joyga o'z familiyasi va ismini yozib olish. Qonunchilikda ko'rsatilgan holatlar bundan mustasno.

5.2.16. PIN-kod uch marta noto'g'ri kiritilgan taqdirda karta egasi telekommunikatsiya tizimlari (Bankning aloqa markaziga telefon orqali va/yoki bankning Internet tarmog'idagi veb-sayti va/yoki Bankning Mobil ilovasi va/yoki Internetdagi boshqa xizmat ko'rsatish kanallari, jumladan elektron pochta va telegram-bot orqali) darhol Bank bilan bog'lanishi va o'zining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi shart. Xorijiy valyutadagi karta uchun PIN-kodni noto'g'ri terish urinishlar sonini bekor qilish (tashlash) Bankning istalgan ofisida amalga oshiriladi. Milliy valyutadagi karta uchun PIN-kodni noto'g'ri terish urinishlar sonini bekor qilish (tashlash) faqatgina ushbu karta ochilgan Bank bo'limida amalga oshiriladi.

5.2.17. Shartnoma doirasida foydalaniladigan Bank Tariflari, yo'riqnomalar va boshqa hujjatlardagi o'zgarishlar to'g'risidagi yangilangan ma'lumotlarni olish uchun Bankning Internet tarmog'idagi saytiga muntazam ravishda tashrif buyurish.

5.2.18. Bank kartasi yo'qolgan yoki ruxsatsiz foydalanilgan taqdirda, karta egasi bu haqda Bankni xabardor qilishi shart. Agar Bank kartasining yo'qolganligi yoki ruxsatsiz foydalanilganligi to'g'risida xabardor qilinmagan bo'lsa, buning oqibatida kelib chiqadigan barcha xavf-xatarlarni Karta egasi o'z zimmasiga oladi.

5.2.19. Shartnoma o'z kuchini yo'qotgach, Bank kartasini biror-bir qo'shimcha shartlarsiz bankka qaytarish.

5.2.20. Emitent bank va to'lov tizimining dasturiy ta'minotidagi texnik uzilishlar va xatolar natijasida yuzaga kelgan ortiqcha mablag'larni emitent bankka qaytarish.

5.2.21. Karta egasi tomonidan Shartnomani buzish bilan bog'liq xarajatlarni to'lash, shuningdek, Shartnoma shartlariga rioya qilmaslik natijasida bankka yetkazilgan zararlarni qoplab berish.

5.2.22. Bank tomonidan yuboriladigan barcha xabarlarini, jumladan, Hamkor mobil ilovasidagi bildirishnomalarni, SMS va PUSH-xabarnomalarni diqqat bilan o'rganib chiqish.

5.2.23. Qurilma (mobil telefon) yo'qolganligi yoki qurilmani boshqarish uchinchi shaxslarning nazoratiga o'tganligi fakti aniqlangan paytdan e'tiboran darhol, biroq 1 (bir) kundan kechiktirmasdan Bankni xabardor qilish.

5.2.24. Mijozning roziligisiz amalga oshirilgan operatsiya fakti aniqlangan paytdan e'tiboran 1 (bir) kun ichida Bankni xabardor qilish.

5.2.25. Bankning so'roviga asosan operatsiya shaxsan Mijoz tomonidan yoki Mijozning topshirig'iga ko'ra yoxud uning ixtiyoriy roziligi bilan uchinchi shaxs tomonidan amalga oshirilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish.

5.2.26. Bankning so'roviga asosan yoki mustaqil ravishda aniqlangan firibgarlik holatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni Bankka taqdim etish.

5.2.27. Yangi qurilmadan mavjud qayd yozuviga (akkauntga) kirish uchun, shuningdek, parolni tiklash jarayonida Mijoz Bank tomonidan belgilangan tartibda masofaviy biometrik identifikatsiya jarayonidan o'tish majburiyatini oladi. Mijoz biometrik identifikatsiyadan o'tishdan bosh tortish Hamkor mobil ilovasi orqali xizmatlardan foydalanish imkoniyatini yo'qqa chiqarishini tan oladi.

5.2.28. Mijoz firibgarlik operatsiyalarining oldini olish maqsadida qurilmani masofadan boshqarish belgilari aniqlanganda yoxud audio/video qo'ng'iroqlar (shu jumladan messenjerlar orqali) amalga oshirilayotgan paytda Bankning Hamkor mobil ilovasi faoliyatini avtomatik ravishda cheklash yoki bloklash huquqini tan oladi va bunga o'zining so'zsiz roziligini beradi.

5.2.29. Mijoz Bank tomonidan bank kartasidan xavfsiz foydalanish qoidalari bo'yicha yozma ravishda tushuntirish olganligini tasdiqlaydi. Unga ko'ra, Mijoz bank kartasining amal qilish muddati, himoya parollari (PIN-kodlar) hamda telefon raqamiga SMS-xabarlar yoki messenjerlar orqali yuboriladigan bir martalik tasdiqlovchi kodlarni (OTP) begona shaxslarga taqdim etmaslik majburiyatini oladi. Ushbu ma'lumotlarning maxfiyligini saqlash va ularni oshkor qilinishi natijasida yuzaga keladigan oqibatlar uchun Mijoz to'liq shaxsiy javobgar hisoblanadi.

5.3. Bank quyidagilarga haqlidir:

5.3.1. Mijozga bank kartasini chiqarish, faollashtirish, qayta chiqarish yoki blokdan chiqarishni o'z xohishiga ko'ra va sabablarini ko'rsatmasdan rad etish.

5.3.2. Barcha Mijozlar yoki Mijozlarning ayrim toifalari uchun xizmatlardan foydalanishga cheklovlar o'rnatish, jumladan: o'tkazmalarning turi va miqdori, farmoyishlarni berish usullari, o'tkazmalarni oluvchilar ro'yxati va boshqalar. Bank o'z xizmatlariga avtomatik murojaat qilishni ta'qiqlashi, shuningdek har qanday ma'lumotni qabul qilishni to'xtatishi mumkin.

5.3.3. Bank kartasi egasi Shartnoma shartlarini buzgan va o'z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda Bank kartasining amal qilishini to'xtatib turish.

5.3.4. Bank kartasi egasi/saqlovchisining shaxsi shubha tug'dirganda, Bank kartasidan foydalangan holda amalga oshirilayotgan amaliyotlar qonunga zid bo'lganda yoki shaxsni identifikatsiyalashni talab qilganda xizmat ko'rsatishni rad etish.

5.3.5. Quyidagi hollarda Bankning mobil ilovasiga qabul qilingan qaror to'g'risida xabarnomani joylashtirish orqali Bank kartasidan foydalangan holda amaliyotlarni vaqtincha to'xtatib turish:

- Karta yoki uning rekvizitlaridan noqonuniy foydalanishdan ochiq-oydin dalolat beruvchi holatlar mavjudligi;
- Kartadan unga vakolati bo'lmagan shaxsning foydalanishi;
- ushbu Umumiy shartlar va amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan boshqa hollarda.

5.3.6. Bank kartasi Mijoz tomonidan yo'qotilgan, shikastlangan yoki haqiqiy emas deb topilganda, hamda amal qilish muddati tugagandan so'ng almashtirilgan taqdirda Xizmatlar uchun belgilangan tarif bo'yicha to'lov olish.

5.3.7. Emitent bank va to'lov tizimining dasturlarida texnik nosozliklar va xatolar natijasida Bank kartasida ortiqcha mablag'lar yuzaga kelgan taqdirda, ushbu mablag'larni Bank kartasining hisobraqamidan ushlab qolish.

5.3.8. Mijoz tomonidan Karta chiqarilgan/qayta chiqarilgan sanadan e'tiboran 3 (uch) oy davomida olinmagan chiqarilgan/qayta chiqarilgan Kartani to'langan komissiyani

qaytarmasdan (karta hisobraqamini yopgan holda) yopish. Bank tomonidan Karta hisobraqami va Kartani yopish huquqlarini amalga oshirish maqsadida, Mijoz ushbu band Karta hisobraqami va Kartani yopish to'g'risidagi Mijozning arizasi ekanligini tasdiqlaydi.

5.3.9. Arizada ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirish va ma'lumotlar ishonchsiz bo'lgan taqdirda Mijozga Karta chiqarishni va Karta hisobraqami ochishni rad etish.

5.3.10. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in quollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida mijozdan mijozni identifikatsiya qilish va Karta hisobraqami bo'yicha amalga oshirilayotgan amaliyotlarning qonuniyligini tasdiqlovchi ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim etishni talab qilish. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajarishni bank tomonidan quyidagilar aniqlangan kuni bir tomonlama rad etish:

- Kartadan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in quollarini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida foydalanilayotganligiga asosli shubhalar;
- jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in quollarini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida shubhali amaliyotlarni takroran amalga oshirish yoki Kartadan foydalanilayotganligiga asosli shubhalar.

5.3.11. Mijozning qo'shimcha farmoyishlarisiz (avvaldan berilgan aksept), Mijozning quyidagi bitimlardan kelib chiqadigan bank oldidagi majburiyatlarini bajarishi uchun pul mablag'larini karta hisobraqamidan hisobdan chiqarish:

- tuzilgan Shartnoma, jumladan Bank Tariflari bilan belgilangan komissiyalar;
- Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan kredit shartnomasi/Onlayn mikroqarz shartnomasi, jumladan kredit shartnomasi/Onlayn mikroqarz shartnomasida nazarda tutilgan asosiy qarz, foizlar, jarimalar, qoplovlar va boshqa to'lovlar;
- mijoz kafil sifatida chiqadigan (gavdalanadigan) Bank bilan tuzilgan kafolat shartnomasi;
- Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan boshqa shartnomalar.

5.3.12. Shartnomaga Ommaviy ofertada nazarda tutilgan tartibda o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar kiritishni taklif qilish.

5.4. Mijoz quyidagilarga haqlidir:

5.4.1. Ofertaning amaldagi versiyasi bilan Bank ofislarida, Bankning korporativ veb-saytida, Bankning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida yoki Tizimlarda tanishish.

5.4.2. Bank kartasi bo'yicha amaliyotlarni Karta hisobraqamidagi pul mablag'lari qoldig'i chegarasida, Shartnoma va To'lov tizimi bilan nazarda tutilgan tartibda va shartlarda amalga oshirish.

5.4.3. Karta hisobraqamidagi qoldiqni Bank kassasiga naqd pul kiritish, hamda amaldagi qonunchilikka muvofiq naqd pulsiz usul bilan to'ldirish.

5.4.4. Pul mablag'larini Kartada mavjud bo'lgan pul mablag'lari chegarasida o'tkazish uchun arizalar berish.

5.4.5. Bank taklif qilayotgan qo'shimcha xizmatlarga ulanish.

5.4.6. Ko'rsatilgan xizmatlar sifati yuzasidan Bankka e'tiroz yuborish.

5.4.7. Masofaviy bank xizmatlari ko'rsatish masalalari bo'yicha Bankning Aloqa markazi yoki Bankning istalgan tarmoqlarida maslahat olish.

5.4.8. Ushbu Shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish, kartani bankka qaytarish va Xizmatga kirishni berkitish. Bunda Mijozga pul mablag'larini Xizmat yordamida ochilgan hisobraqamlardan qaytarish hisobraqam belgilangan tartibda ochilgan Bank tarmog'i tomonidan amalga oshiriladi.

5.4.9. Masofaviy bank xizmatlari orqali Karta hisobraqami/karta bo'yicha ko'chirma olish.

5.4.10. Kartani ushbu Oferta shartnomasi qoidalarida nazarda tutilgan tartibda bloklash va blokdan chiqarish haqida Bankka yozma va/yoki og'zaki shaklda iltimos bilan murojaat qilish.

5.4.11. Bank kartasidan foydalanish qoidalari, Mijoz javobgarligining chegaralari va Bank kartasi emitentining undan foydalangan holda amalga oshiriladigan amaliyotlar to'g'risida to'liq ma'lumot olish.

6. Taraflarning javobgarligi

6.1. Taraflar Ushbu Shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

6.2. Bank o'zining nazoratidan tashqarida bo'lgan fors-major vaziyatlar va tashqi hisob-kitob tizimlari, To'lov tizimlari, ma'lumotlarni ishlash va uzatishdagi uzilishlar bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar uchun, hamda agar karta uchinchi taraf tomonidan to'lov uchun qabul qilinmagan taqdirda javobgar bo'lmaydi.

6.3. Bank boshqa kredit tashkilotlari, moliya muassasalari, To'lov tizimlari va hisob-kitoblarning boshqa ishtirokchilari tomonidan Karta yoki uning rekvizitlaridan foydalangan holda amaliyotlarni amalga oshirganlik uchun undiriladigan komissiyalar va qo'shimcha to'lovlar uchun javobgar bo'lmaydi.

6.4. Bank Bank kartasi bo'yicha amalga oshirilgan amaliyotlar, jumladan Mijoz Bankni Bank kartasi bo'yicha amaliyotlarni to'xtatib turish (bloklash) yoki Bank kartasining yo'qolganligi to'g'risida xabardor qilguniga qadar bank kartasi rekvizitlaridan foydalangan holda sodir etilgan amaliyotlar uchun javobgar bo'lmaydi. To'lov tizimlari talablariga muvofiq, Bank to'lovlarni Bank kartasi yoki uning rekvizitlaridan foydalangan holda amalga oshirishi shart va Mijozning karta hisobraqamini Mijoz Bankni Bank kartasi bo'yicha amaliyotlarni to'xtatib turish (bloklash) yoki Bank kartasining yo'qolganligi to'g'risida xabardor qilgan vaqtga qadar sodir etilgan amaliyotlar summasiga teng bo'lgan summaga debetlashga haqlidir.

6.5. Bank quyidagi hollarda Mijoz oldida javobgar bo'lmaydi:

- Karta egasi Shartnoma, Bank tariflari, Ommaviy oferta va amaldagi qonunchilikda ko'rsatilgan qoidalar va tartib-tamoyillarni buzganda;
- Karta egasi tomonidan noqonuniy hatti-harakatlar sodir etilganda;
- Bank kartasi va (yoki) PIN-kodning yo'qolishi Mijozning aybi yoki ehtiyotsizligi tufayli sodir bo'lganda.

6.6. Bank quyidagilar uchun javobgar bo'lmaydi:

- mijozning moliyaviy yo'qotishlari uchun, agar tranzaksiyalar Internet orqali karta rekvizitlari ko'rsatilgan holda amalga oshirilgan bo'lsa;

- Bankning nazoratidan tashqarida bo‘lgan holatlar tufayli o‘z majburiyatlarini bajarishning imkoniyati yo‘qligi;
- savdo (xizmat ko‘rsatish) korxonalarini tomonidan tovarlar/ishlar/xizmatlarni sotish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini lozim darajada bajarilmasligi;
- uchinchi shaxslarning Tranzaksiyalarda ishtirok etuvchi uskunalarini yoki aloqa kanallari ishidagi uzilishlar;
- Mijoz Tizim yordamida xato to‘lovni amalga oshirganligi;
- Shartnomaning shartlariga mos kelmaydigan yoki ularga zid bo‘lgan Tranzaksiyalar bo‘yicha pul mablag‘larni qoplash bo‘yicha.

6.7. Taraflar tizimlar bilan ishlashda olingan ma‘lumotlarning saqlanishi va maxfiyligini ta‘minlash uchun javobgardirlar.

6.8. Mijoz quyidagilar uchun javobgar bo‘ladi:

- Shartnoma shartlarini buzganlik;
- Bank kartasining butligi va saqlanishi, shuningdek, Mijoz yoki Karta rekvizitlariga ega bo‘lgan uchinchi shaxslar tomonidan Kartadan foydalangan holda amalga oshirilgan tranzaksiyalar;
- PIN-kod/Kirish kodi/Maxfiy kod va bank kartasi rekvizitlarini boshqa shaxslarga o‘tkazish;
- Bank PIN-kod/Kirish kodi/Maxfiy kod uchinchi shaxslarga oshkor qilinganligi to‘g‘risida xabardor bo‘lishidan oldin (Masofaviy Bank xizmatlari ko‘rsatish kanallari orqali tegishli ariza) amalga oshirilgan har qanday tranzaksiyalar;
- Mijoz Kartani yo‘qotgan taqdirda, Bank xabardor qilingunga qadar o‘tkazilgan barcha tranzaksiyalar bo‘yicha;
- Bank kartasi rekvizitlaridan foydalangan holda Internet orqali amalga oshirilgan barcha tranzaksiyalar;
- mijozning Kartalardan foydalanish qoidalariga rioya qilmaganligi sababli bank kartalari bo‘yicha firibgarlik tranzaksiyalari natijasida ko‘rilgan barcha zararlar;
- Bankka taqdim etilgan barcha ma‘lumotlarning ishonchliligi.

6.9. Elektron to‘lov bankning aybi bilan xatolik bilan amalga oshirilgan taqdirda, Bank xato aniqlangandan keyingi ish kunidan (amaliyot kunidan) kechiktirmay mablag‘larni oluvchining hisobraqamiga o‘tkazishi shart. Aks holda, Mijoz qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Bankdan mablag‘larni qaytarishni, hamda foizlarni O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 327-moddasiga muvofiq, lekin noto‘g‘ri amalga oshirilgan elektron to‘lov summasining o‘n foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda har bir kun uchun, to‘lov kuniga qadar to‘lashni talab qilish huquqiga egadir.

6.10. Taraflarning Ushbu Ofertada nazarda tutilmagan javobgarligi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tartibga solinadi.

7. Shartnomaning amal qilish muddati

7.1. Ushbu Ilovaning amal qilish muddati Mijoz ushbu Oferta shartlarini qabul qilgan paytdan boshlab, shuningdek, Mijozning karta hisobvarag‘ini ochish to‘g‘risidagi arizasini Bank qabul qilgan paytdan boshlab kuchga kiradi va karta hisobvarag‘i yopilgunga qadar amal qiladi.

7.2. Shartnoma mijozning arizasiga binoan muddatidan ilgari bekor qilinishi mumkin. Mijoz ariza berilgan kunda Shartnoma bo‘yicha chiqarilgan barcha amaldagi bank kartalarini qaytarishi shart. Karta hisobraqamidagi pul mablag‘larining qoldig‘i Shartnomaga muvofiq qaytariladi.

7.3. Oferta shartnomasining bank kartalariga taalluqli qismi bekor qilingan taqdirda, Bank Karta hisobraqami bo'yicha amaliyotlarni to'xtatib turadi. Mavjud mablag'larning qoldig'i boshqa hisobraqamga saqlovchining yozma arizasiga asosan o'tkazib beriladi yoki karta keyingi 3 (uch) va/yoki 5 (besh) yilga uzaytirilgan taqdirda, hisobraqam qayta tiklanadi.

7.4. Agar Mijoz Bank kartasini bank kartasi chiqarilgan/qayta chiqarilgan kundan e'tiboran bir yil ichida olmasa va Shartnoma doirasida chiqarilgan boshqa amaldagi Bank kartalari mavjud bo'lmagan taqdirda Shartnoma amal qilishini to'xtatgan (bekor qilingan) hisoblanadi.

7.5. Shartnomani bekor qilishda Mijoz tomonidan Shartnoma bekor qilingunga qadar Bank Tariflariga muvofiq to'langan Bank kartasi va u bo'yicha amalga oshirilgan amaliyotlar bilan bog'liq barcha komissiyalar mijozga qaytarilmaydi.

7.6. Shartnomani to'xtatish (bekor qilish) Taraflarning Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bekor qilinishiga olib keladi va Karta hisobraqamini yopish uchun asos bo'ladi.

8. Yakuniy qoidalar

8.1. Tomonlar "Bank siri to'g'risida"gi qonunda nazarda tutilgan hollarda bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga, shuningdek Bankka ushbu Shartnomaga muvofiq bank tomonidan xizmatlar ko'rsatishga qaratilgan texnik xizmatlar ko'rsatuvchi shaxslarga yetkazilishi yoki taqdim etilishiga bank siriga oid ma'lumotlarni oshkor etilishi hisoblanmasligiga kelishib oldilar. Taraflar bank tomonidan "Bank siri to'g'risidagi Qonunda nazarda tutilgan hollarda bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga, hamda Bankka ushbu Shartnomaga muvofiq Bank tomonidan xizmat ko'rsatishga qaratilgan texnik tUSDagi xizmatlar ko'rsatuvchi shaxslarga xabar qilinishi yoki taqdim etilishi bank sirini oshkor etish etmasligiga kelishib oladilar.

8.2. Ushbu Shartnomadan kelib chiqadigan nizolar va kelishmovchiliklar Ommaviy ofertada nazarda tutilgan tartibda hal etiladi.

8.3. Shartnoma shartlarida nazarda tutilmagan boshqa barcha masalalar bo'yicha Taraflar Ommaviy oferta qoidalari va amaldagi qonunchilikka amal qiladilar.

8.4. Shartnomaga kiritiladigan barcha o'zgartirishlar va qo'shimchalar, agar ular Kelishuv va Ommaviy oferta talablariga muvofiq kiritilgan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

8.5. Bankning aybi bilan texnik xatolik tufayli o'tkazma/to'lov amalga oshirilmagan taqdirda Mijoz texnik xatolikni bartaraf etish uchun asosli taklif/ariza/xabarnoma bilan quyidagi aloqa kanallari orqali bankka murojaat qilishi lozim:

- bankning aloqa markazi – 1256 telefon raqami orqali;
- Telegramdagi @ConsultHamkorbankBot boti.

Bank, o'z navbatida, taklif/ariza/xabarnoma olingan paytdan e'tiboran 15 ish kuni ichida texnik xatolikni bartaraf etishi shart.

8.6. Moliyaviy xizmat o'z vaqtida ko'rsatilmaganligi sababli mijozga zarar yetkazilgan taqdirda mijoz asoslantirilgan e'tiroz/ariza/xabarnoma bilan quyidagi aloqa kanallari orqali murojaat qilishi lozim:

- Bankning istalgan tarmog'iga;
- contact@hamkorbank.uz elektron manzil orqali;

Bunda e'tiroz/ariza/xabarnomada quyidagilar ko'rsatiladi:

- e'tiroz bildirgan mijozning F. I. Sh.;
- e'tiroz bildirish sanasi;
- e'tiroz bildirish uchun asos bo'lgan holatlar;

- e'tirozda bayon etilgan holatlarni tasdiqlovchi dalillar;
- mijozning talablari;
- e'tiroz summasi va uning hisob-kitobi, ariza beruvchining to'lov va pochta rekvizitlari;
- e'tirozga ilova qilingan hujjatlar ro'yxati;
- murojaatni har tomonlama ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan, bank talab qilgan boshqa hujjatlar.

Bank da'vo/ariza/xabarnoma olingan paytdan e'tiboran 15 kalendar kun ichida kompensatsiya to'lash to'g'risidagi da'voni/arizani/xabarnomani ko'rib chiqadi va kompensatsiya to'lash to'g'risida qaror qabul qiladi yoki da'voni/arizani/xabarnomani qanoatlanirish rad etilganligining asoslantirilgan javobini yuboradi.

8.7. Mazkur ofertaning ilovasi – ““HAMKORBANK” ATB XALQARO BANK KARTALARNI TOKENLASH XIZMATIGA OID QOIDALARI” faqat mijoz xalqaro Visa kartalaridan foydalangan taqdirda tadbiiq etiladi.

9. Rekvizitlar

“Hamkorbank” ATB

Litsenziya: O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki 31.08.1991 y. № 64

Yuridik va pochta manzili: O'zbekiston, Andijon sh., Babur shoh 85 uy

MFO: 00083

INN: 200 242 936

OKED: 64190

Telefon: 1256, 0 800 1 200 200

Elektron pochta: contact@hamkorbank.uz

“HAMKORBANK” ATB XALQARO BANK KARTALARNI TOKENLASH XIZMATIGA OID QOIDALARI

Ushbu Qoidalar Visa kartalarini elektron hamyonlarga (Swoo Pay, Garmin Pay, Fidesmo Pay va boshqalar) ulashda tokenlash xizmatidan foydalanish tartibini belgilaydi. Xizmatdan foydalanish Mijozning ushbu shartlar va qoidalarga roziligini anglatadi. “Hamkorbank” ATB (keyingi o‘rinlarda – Bank) tomonidan taqdim etiladigan karta tokenidan foydalanish qoida va shartlari (keyingi o‘rinlarda – Qoidalar) ommaviy oferta hisoblanadi. Mijozga Qoidalar ommaviy oferta shartnomasini tasdiqlagandan so‘ng majburiy hisoblanadi.

1. Asosiy tushunchalar

NFC - (Near Field Communication) - bu kichik radiusli (10 sm gacha) simsiz yuqori chastotali aloqa texnologiyasi bo‘lib, u kichik masofada joylashgan qurilmalar, masalan, terminal va mobil telefon o‘rtasida kontaktsiz ma‘lumot almashinuvini amalga oshirish imkonini beradi, hamda Bank tomonidan mazkur qoidalarda nazarda tutilgan tartib va shartlarda taqdim etiladi;

HCE (Host-based Card Emulation) — himoyalangan fizik elementdan foydalanmasdan, NFC bilan ishlash uchun bank kartasini dasturiy emulyatsiya qilish usuli;

Bank kartasi (BK) — bank tomonidan emissiya qilingan, shaxsiylashtirilgan, to‘lov vositasi sifatida foydalaniladigan va uning egasiga bank hisobvarag‘idagi mablag‘lar doirasida operatsiyalarni amalga oshirish, shu jumladan hisobvaraqlar orqali naqd pulsiz hisob-kitoblar (to‘lovlar) va milliy (yoki xalqaro) valyutada naqd pul yechish imkonini beruvchi amaldagi kartadir;

Xalqaro to‘lov tizimlari (XTT) — global to‘lov vositalari va texnologiyalarining (shu jumladan Visa International, UnionPay int. va boshqalar) faoliyat yuritishini ta‘minlovchi, shuningdek, to‘lov kartalari va tokenlardan foydalangan holda operatsiyalarni amalga oshirish qoidalarini belgilovchi tashkilotlardir;

Bank kartasi egasi (yoki Mijoz) — Ariza asosida karta hisobvarag‘ini ochgan, bank kartasi bo‘yicha to‘lov operatsiyalarini amalga oshirish, shuningdek, bank kartasi va karta hisobvarag‘ini yopish huquqiga ega bo‘lgan jismoniy shaxs;

Mobil qurilma - Mijozning shaxsiy foydalanishida bo‘lgan, mobil (ko‘chma radiotelefon) aloqasiga va/yoki axborot-telekommunikatsiya tarmog‘iga «Internet» (bundan keyin – Internet) ulanish imkoniyatiga ega bo‘lgan elektron qurilma (planshet, smartfon, mobil telefon, aqlli soatlar va h.k.);

Shartnoma — Bank va Mijoz o‘rtasida ilgari imzolash yoki Bank offertasini akseptlash orqali tuzilgan Bank kartalarini chiqarish va ularga xizmat ko‘rsatish shartnoma (“Hamkorbank” aksiyadorlik tijorat bankining jismoniy shaxslarga bank xizmatlarini ko‘rsatishning umumiy shartlari to‘g‘risidagi ommaviy oferta)si;

Mobil ilova – “Hamkor” (bundan keyin – Mobil ilova) Bankning mobil texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan va bank operatsiyalarini amalga oshirish, hisob-varaqlarning holati hamda boshqa ma‘lumotlarni onlayn rejimda olish uchun mo‘ljallangan ixtisoslashgan dasturiy ta‘minoti hisoblanadi;

Tokenizatsiya - Bank kartasi rekvizitlari noyob raqamli identifikatorga almashtiriladigan ma‘lumotlarni himoya qilish usuli bo‘lib, bu jarayon natijasida Token yaratiladi;

Token - Kartadagi ma‘lumotlarni va uning rekvizitlarini o‘rnini bosuvchi noyob raqamli identifikator. Token, Tokenizatsiya amalga oshirilgan karta egasining aniq bir qurilmasiga biriktiriladi;

Raqamli hamyon - Karta tokenlarini saqlash va to‘lovlarni amalga oshirish imkonini beruvchi dasturiy ta‘minot (masalan, Swoo Pay, Garmin Pay, Fidesmo Pay va boshqalar);

Karta rekvizitlari - Kartaning raqami, Kartaning amal qilish muddati, Egasi ismi va familiyasi (mavjud bo‘lsa), Kartaning haqiqiylikini tekshirish kodi CVC2/CVV2.

2. Kartani ulash tartibi

2.1. Kartani ulash mijozning tashabbusi bilan bevosita raqamli hamyonda va/yoki bankning mobil ilovasi orqali yoki boshqa mavjud xizmatlar orqali amalga oshiriladi;

2.2. Kartani faollashtirish uchun mijoz autentifikatsiya (shaxsni identifikatsiya qilish) jarayonidan o‘tadi;

2.3. Xizmat faqatgina qo‘llab-quvvatlanadigan qurilmalarda va qo‘llab-quvvatlanadigan raqamli hamyonlar bilan mavjud.

3. Tokenizatsiya

3.1. Kartani Tokenizatsiya qilish quyidagi shartlarga rioya qilinib, talablar bajarilganda mumkin:

- a) Mobil qurilmada NFC funksiyasi mavjud bo‘lganda;
- b) faqat Bank tomonidan Mijoz nomiga chiqarilgan amaldagi (aktiv, bloklanmagan) to‘lov kartalari uchun;
- c) Mobil qurilmada Mobil ilova (tegishli dasturiy ta‘minot) mavjud bo‘lganda;
- d) Mijozlar tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi;
- e) BK (Bank Kartasi) dan foydalanish va unga xizmat ko‘rsatish shartlarining o‘zgarishiga olib kelmaydi.

3.2. Karta Tokenini yaratish tegishli Raqamli hamyon va XTT (Xalqaro to‘lov tizimlari) tartib-qoidalarini bilan nazarda tutilgan bir qator harakatlarni amalga oshirish orqali sodir bo‘ladi.

3.3. Bitta Karta uchun bir vaqtning o‘zida turli xil Mobil qurilmalarda foydalaniladigan bir nechta Tokenlarni yaratish mumkin. Bitta Mobil qurilmada yaratilgan Token boshqa qurilmada foydalanish uchun yaroqli emas;

3.4. Token kontaktsiz to‘lov funksiyasiga ega terminallar bilan jihozlangan xizmat ko‘rsatish nuqtalarida, shuningdek, Internet tarmog‘ida tranzaksiyalarni amalga oshirish uchun ishlatilishi mumkin. Ushbu xizmat ko‘rsatish nuqtalarida Karta egasi To‘lov mobil xizmatida tegishli to‘lov Kartasi Tokenini tanlashi va qurilmani terminalga yaqinlashtirishi lozim (tranzaksiyalar to‘lov Kartasidan foydalangan holda kontaktsiz to‘lovlar tamoyili bo‘yicha amalga oshiriladi). Internet tarmog‘ida Token orqali tranzaksiyalarni amalga oshirish xizmat ko‘rsatish nuqtasi Token orqali to‘lovni qabul qilgan taqdirda mumkin bo‘ladi, bu holda to‘lov kartasi rekvizitlarini qo‘lda kiritish talab etilmaydi.

4. Mijozning huquq va majburiyatlari

- 4.1. Mijoz token saqlanadigan qurilmaning xavfsizligini ta‘minlashi shart;
- 4.2. Mijoz qurilmani uchinchi shaxslarga bermasligi kerak;
- 4.3. Mijoz qurilmaning yo‘qolishi yoki buzilishi haqida Bankni o‘z vaqtida xabardor qilishi shart;
- 4.4. Token yordamida amalga oshirilgan tranzaksiyalar To‘lov Kartasi yoki uning rekvizitlari yordamida amalga oshirilgan tranzaksiyalarga tengdir;
- 4.5. Token yordamida amalga oshirilgan barcha operatsiyalar mijozning o‘zi tomonidan amalga oshirilgan deb tan olinadi;
- 4.6. Tokendan foydalanish xavfsizligi Karta egasi tomonidan mustaqil ravishda ta‘minlanadi;
- 4.7. Tokenni bloklash yoki uni Mobil ilovadan va/yoki To‘lov mobil xizmatlaridan o‘chirish Karta egasi tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi. Tokenni bloklash, Token yaratilgan Kartani bloklash uchun asos bo‘lmaydi.

5. Bankning javobgarligi

5.1. Bank uchinchi shaxslarning qurilmalari, operatsion tizimlari va hamyonlari ishlashi uchun javobgar emas;

5.2. Bank faqat qonunchilik va XTT (Xalqaro to‘lov tizimlari) talablari doirasida karta operatsiyalarini to‘g‘ri o‘tkazilishi uchun javobgar.

6. Bankning huquqlari

6.1. Bank istalgan vaqtda sababini ko‘rsatmasdan va mijozga oldindan xabar bermasdan, barcha Tokenlarning yoki ularning bir qismining amal qilishini tugatishi, bloklashi yoki to‘xtatib turishi mumkin;

6.2. Token Bank tomonidan karta qayta chiqarilganda, firibgarlikka shubha qilinganda yoki to‘lov tizimi talabiga binoan faolsizlantirilishi mumkin;

6.3. Bank ushbu Qoidalarga XTT (Xalqaro to‘lov tizimlari) va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq o‘zgartirishlar kiritishi yoki qo‘shimchalar kiritishi mumkin, yangilangan versiyani esa www.hamkorbank.uz bank veb-saytida joylashtiradi.

7. To‘lov tizimlari bilan o‘zaro hamkorlik

7.1. Karta ma‘lumotlari XTT (Visa int., UnionPay int. va b.) tizimlariga uzatilishi va saqlanishi mumkin;

7.2. Bank ko'rsatilgan tizimlardagi ma'lumotlarni qayta ishlashning barcha bosqichlarini nazorat qilmaydi.

8. Konfidensiallik va ma'lumotlar qayta ishlanishi

8.1. Bank xavfsizlikni ta'minlash va xizmat sifatini yaxshilash uchun qurilma haqida texnik ma'lumotlarni to'plashi mumkin;

8.2. To'lov tizimlari va hamyon provayderlari xizmatning ishlashini ta'minlash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarga kirish huquqini olishi mumkin;

8.3. Kartaning bloklanishi Tokenni bloklash uchun asos bo'ladi va Token bekor qilinadi.

9. Shartlarni o'zgartirish

9.1. Bank ushbu shartlarni o'zgartirish huquqiga ega;

9.2. Xizmatdan foydalanishni davom ettirish mijozning yangilangan shartlarga rozi ekanligini bildiradi;

9.3. Rozi bo'lmagan taqdirda, mijoz kartani raqamli hamyondan o'chirib tashlashi kerak.

10. Shartnoma narxi va hisob-kitob qilish tartibi

10.1. Tokenizatsiya xizmati Bankning amaldagi tariflariga muvofiq, faol Tokenli har bir karta uchun to'lanadi. To'lov Tokenizatsiya vaqtida, shuningdek, Bank tariflarida ko'rsatilgan tartibda undiriladi. Karta Tokeni xizmatidan foydalanish uchun mablag' yetarli bo'lmagan taqdirda, Token bloklanadi.

11. Yakuniy qoidalar

11.1. Ushbu shartlar bank xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi shartnomaning ("Hamkorbank" aksiyadorlik tijorat bankining jismoniy shaxslarga bank xizmatlarini ko'rsatishning umumiy shartlari to'g'risidagi ommaviy oferta) ajralmas qismi hisoblanadi. Tokenizatsiya xizmatidan foydalanish mijozning ushbu shartlarga roziligini tasdiqlaydi;

11.2. Token yordamida amalga oshiriladigan amaliyotlarga Shartnomaning barcha shartlari va talablari tatbiq etiladi;

11.3. Token va/yoki to'lov Kartasini bloklash kuchga kirgunga qadar, Token yordamida amalga oshirilgan barcha tranzaksiyalar uchun to'liq javobgarlik Mijoz zimmasiga yuklanadi;

11.4. Karta egasi Bankning To'lov mobil xizmatining ishlashi va Token yordamida tranzaksiyalarni amalga oshirish imkoniyati yo'qligi uchun javobgar emasligiga rozi;

11.5. Karta egasi tomonidan Kartani Tokenizatsiya qilish bo'yicha harakatlarni amalga oshirish ushbu Qoidalar bilan tanishish va ularga rozilik berishni bildiradi.

12. Xavfsizlik choralari bo'yicha tavsiyalar

12.1. Mijoz o'zining to'lov kartasi rekvizitlarini, shu jumladan PIN-kodini sir saqlashi va ularni uchinchi shaxslarga bermasligi shart. Kartani olgandan so'ng PIN-kodni o'zgartirish tavsiya etiladi;

12.2. Barcha tovarlar va xizmatlar uchun to'lov operatsiyalari mijoz ishtirokida va uning shaxsiy nazorati ostida amalga oshirilishi kerak;

12.3. Ruxsatsiz operatsiyalarning oldini olish maqsadida SMS-xabarnoma xizmatini ulash tavsiya etiladi. Bu mablag'larning karta bo'yicha harakatini real vaqt rejimida nazorat qilish imkonini beradi;

12.4. Mijozga hisob-varaqdan ko'chirmalarni muntazam tekshirib borish va to'lov hujjatlarini (cheklarni) saqlash tavsiya etiladi. Shubha tug'diradigan yoki notanish operatsiyalar aniqlangan taqdirda, mijoz darhol "Hamkorbank" ATBni xabardor qilishi hamda kartani bloklashi shart;

12.5. Shubha uyg'otadigan internet-saytlarga karta ma'lumotlarini (raqami, amal qilish muddati, CVV2/CVC2) kiritish qat'iyan man etiladi. "Hamkorbank" ATB hech qachon elektron pochta, messengerlar yoki telefon qo'ng'iroqlari orqali karta rekvizitlarini so'ramaydi;

12.6. Mijozga karta rekvizitlarini kiritish bilan bog'liq bo'lgan "yutuqlar" yoki "mablag'larni qaytarish" takliflarini olganda ehtiyot bo'lish tavsiya etiladi;

12.7. O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqqanda mijozga quyidagilar tavsiya etiladi:

a) "Hamkorbank" ATBni oldindan xabardor qilish va xorijda kartalarga xizmat ko'rsatish shartlarini aniqlashtirish;

b) kartaning amal qilish muddatini tekshirish va zarurat bo'lsa, uni qayta chiqarish;

c) firibgarlik xavfi yuqori bo'lgan mamlakatlarda kartadan ehtiyotkorlik bilan foydalanish;

d) O'zbekistonga qaytganidan so'ng kartaning buzilganligi (komprometatsiya) bo'yicha shubhalar mavjud bo'lsa, kartani qayta chiqarish uchun darhol bankka murojaat qilish.

12.8. Karta egasiga quyidagilar tavsiya etiladi:

- a) uchinchi shaxslarga tegishli Mobil qurilmalarda to'lov kartalarini Tokenizatsiya qilmaslik;
- b) Mobil qurilmani uchinchi shaxslarga foydalanish uchun bermaslik;
- c) agar undan foydalanish to'xtatilgan bo'lsa, Mobil qurilmadan Tokenni o'chirib tashlash;

Mobil qurilma yo'qolgan yoki o'g'irlangan taqdirda, shuningdek, unga yoki Tokenga ruxsatsiz kirish bo'lgan taqdirda, Bank bo'limlariga murojaat qilish yoki Bankning Call center (1256 qisqa raqami) orqali qo'ng'iroq qilish (Bank rekvizitlari www.hamkorbank.uz saytida ko'rsatilgan) orqali Bankni darhol xabardor qilish va Tokenni va/yoki to'lov kartasini bloklash zarur.

13. Rekvizitlar

“Hamkorbank” ATB

Litsenziya: O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki 31.08.1991 y. № 64

Yuridik va pochta manzili: O'zbekiston, Andijon sh., Babur shoh 85 uy

MFO: 00083

INN: 200 242 936

OKED: 64190

Telefon: 1256, 0 800 1 200 200

Elektron pochta: contact@hamkorbank.uz